


**XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR
FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**
(fermer va dehqon xo 'jaliklarisiz)

**I BO'LIM. TOSHKENTVILOYATIBO'YICHA
KORXONAVATASHKILOTLARSONI**
Ro'yxatdano'tgankorxonavatashkilotlarsoni
(1-aprel holatigako 'ra, mingbirlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'mida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

67159

107,2 %

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

43 280

96,4 %

**Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2023-yilda)**

1 618


83,5 %

Yuridikshaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**


Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024-yill- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



*Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar,
ming birlik*



*Xususiy korxonalar,
ming birlik*



Mas’uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni mas’uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlar qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.


Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiylaysi

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(*tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024-yill- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo‘yicha, o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o‘z ifodasini


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(*yanvar-mart oylarida, ming birlikda*)




Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(*iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda*)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(*2024-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi*)




2024- yilning yanvar-mart oylarida 1618 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Shundan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1301 tani, xususiy korxonalar 49 tani, oilaviy korxonalar 204 tani, muassasalar 52 tani va boshqalar 12 tani tashkil etdi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(2024-yil-aprel holatiga ko'ra)**




**Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2024-yil 1 aprel holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 6604 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 %ga kamaydi Ishlab chiqarish sanoati (jami sanoatdagi ulushi 93,0 foiz), tog'-konsanoati va ochiq konlarni ishslash (jami sanoatdagi ulushi 4,6 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiyatizimi, chiqindilarini yig'ish va utilizatsiya qilish (jami sanoatdagi ulushi 1,7 foiz) va elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (jami sanoatdagi ulushi 0,7 foiz) tashkiletdi..

Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiylaysi tavsifi

**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona
va tashkilotlar soni**
(2024-yil 1-aprel holatigako ra, birlikda)



2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 643tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 %ga pasaydi. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 51,7 foizni;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 13,8 foizni

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 34,5 foizni tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1-aprel holatigako ra, birlikda)

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, savdo sohasidagiviloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasidagi ulishi 61,5 foizni;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasidagi ulishi 30,9 foizni;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,6 foizni tashkil etdi.

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2024- yill- aprel holatigakorxona 'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasi

805



- Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

29



- Yashah uchun joy bilan ta'minlagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

19



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2024- yill- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



308

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 649

Oziq-ovqat va ichimliklaryetkazish bo'yicha xizmatlar

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,6 foizga kamaygan. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdi:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,4 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo'yicha oziq- ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(1-aprel holatiga 'ra, birlikda)**

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 29,4 foizini tashkil etdi.


Axborot xizmati ko'rsatish hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 16,1 foizini tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 33,1 foizini tashkil etdi



**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Oilaviy korxonalar soni
(2024- yil 1- aprel holatigako 'ra, birlikda)



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 619 taga ko'paygan. Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 691 taga, boshqa turlar bo'yicha 61 taga sonining sezilarli ko'payishi bilan izohlanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 705 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 223 taga yoki 5,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2024- yilning yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 204 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 111,5 %ni tashkil etdi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1- aprel holatigako 'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 46 646 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 313 taga yoki 110,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 29728 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 487 tani yoki 98,4 %ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1301 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 326 taga yoki 20,0 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.




**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiylaysi**


**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2024-yill- aprel holatigako 'ra, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




**IIBO'LIM. TOSHKENT VILOYATIDAGI
XORIJY KAPITALISHTIROKIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI
(2024- yill- aprel holatigako 'ra, birlikda)**



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 2152 tani tashkil etib, ulardan 1 602tasi yoki 74,4 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 206 taga yoki 14,7%ga ko'payganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 88 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.




**Toshkent viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2024-yill- aprel holatigako 'ra, birlikda)**

Mamlakalar	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
1	Rossiya Federatsiyasi	156	21 125
2	Qozog'iston Respublikasi	84	14 70
3	Tojikiston Respublikasi	21	1 20
4	Ukraina Respublikasi	12	5 7
5	Qirg'iz Respublikasi	10	2 8
6	Ozarbayjon Respublikasi	8	2 6
7	Belarus Respublikasi	7	2 5
8	Armaniston Respublikasi	6	0 6
9	Latviya Respublikasi	1	1 0
10	Moldova Respublikasi	4	2 2

**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Jami	1 217	1 335	1 482	1 396	1 602
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	116	128	134	102	96
sanoat	700	701	743	664	642
qurilish	52	70	79	66	64
savdo	195	250	295	342	548
tashish va saqlash	18	27	28	32	31
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26	28	32	28	33
axborot va aloqa	6	3	10	15	20
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	16	15	12	10
boshqa turlar	92	112	146	135	158

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiyl tavsifi**

**IIIBO'LIM. HUDUDLAR BO'YICHA KORXONA
VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT**

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yill- aprel holatigako 'ra, birlikda)




**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni
(2024-yill- aprel holatigako ‘ra, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo‘shmakorxona</i>	<i>xorijiykorxona</i>
Toshkent viloyati	1602	505	1097
Oqqo‘rg‘on tumani	15	3	12
Ohangaron tumani	70	19	51
Bekobod tumani	3		3
Bo‘stonliq tumani	48	23	25
Bo‘ka tumani	13	4	9
Quyi Chirchiq tumani	51	18	33
Zangiota tumani	378	61	317
Yuqori Chirchiq tumani	97	37	60
Qibray tumani	130	47	83
Parkent tumani	28	11	17
Piskent tumani	29	10	19
O‘rta Chirchiq tumani	90	22	68
Chinoz tumani	31	15	16
Yangiyo‘l tumani	75	22	53
Toshkent tumani	83	31	52
Nurafshon shahri	53	16	37
Olmaliq shahri	49	16	33
Angren shahri	99	51	48
Bekobod shahri	27	13	14
Ohangaron shahri	57	24	33
Chirchiq shahri	122	50	72
Yangiyo‘l shahri	54	12	42

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2024- yill- aprel holatigako ‘ra, birlikda)**




**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni
(2024- yill- aprel holatigako ‘ra, birlikda)**



2024- yill- aprelholatigako‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidag iulushi Zangiota tumanida 13,0 %, Qibray tumanida 9,4 %, Toshkent tumanida 6,8 %, Angren shahrida 6,0 %, Yangiyo‘l tumanida 4,6 %, Chirchiq shahrida 7,1 %, Yuqori Chirchiq tumanida 5,0 %, O‘rtachirchiq tumanida 4,1 %, Olmaliq shahrida 4,3%, Parkent tumanida 4,6%, Bo‘stonliq tumanida 4,4 %, Yangiyo‘l shahrida 3,4 %, Quyichirchiq tumanida 2,8 %, Bo‘ka tumanida 2,9 %, Bekobod shahrida 2,8 %, Ohangaron tumanida 2,7 %, Piskent tumanida 2,5 %, Nurafshon shahrida 2,3 %, Ohangaron shahrida 2,7 %, tumanida 2,6 %, Bekobod tumanida 2,9 % va Oqqo‘rg‘on tumanida 2,3 %ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2024- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi %da)**




2022-2026 yillarda rivojlanishning yo‘nalishi bo‘yicha “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini

**Korxona va tashkilotlar
faoliyatining umumiylaysi**


1,4 barobarga oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalg qilishmuhim hisoblanadi.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2024- yilyanvar-mart oylarida, birlikda)**



2024- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida ko‘riladigan bo‘lsa, asosan O‘rta Chirchiq (11,3 %), Oqqo‘rg‘on (5,4 %), Bo‘stonliq (5,4 %), Yuqori Chirchiq (6,4 %), Zangiota (8,8 %), Yangiyo‘l (4,4 %), Parkent (14,7), Qibray (3,4 %), Toshkent (5,9 %), Chinoz (2,9 %) tumanlari va Nurafshon (3,9 %) shahriyuqori ulushgaega.

**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar soni
(2024- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)**



**Korxona va tashlilotlar
faoliyatining umumiy tavsiyi**

Statistikko‘rsatkichlargaizohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomaga tushidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan- ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangitash kiletilgan- ro'yxat dano'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faoliylik darajasi- ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdag'i "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- sonliqarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiylaysi tavsifi